

PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

**Bayniyazov Nurjan***Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika fakulteti
maktab menejmenti 1-kurs talabasi***Muxammadova Mahliyo***Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika fakulteti
maktab menejmenti 1-kurs talabasi***Annotatsiya:** Pedagogikaning yaratilishi va tuzilishi, ahamiyati**Kalit sozlar:** Pedagogika, shaxs, tarbiyalash, D.Lokk, Jan Jak Russo, I.Pestalotssi, I.Gerbard, A.Disterverg

Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish P.ning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash P.dagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Hurmatli Prezidentimiz Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» asarida «Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e‘lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma‘rifatli kishilarni tushunamiz». Va yana «Yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan odamlarning yetishmasligi bizning olg‘a siljishimizda hamon katta to‘siq bo‘lib turibdi. Bunday kadrlarni, avvalombor, yosh kadrlarni topish, o‘stirish, tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda», deb juda o‘rinli ta‘kidlangan. Haqiqatan ham bunday fazilatlarga ega bo‘lgan kishini shakllantirish pedagogika fani va shu sohada ishlaydigan mutaxassislari zimmasiga yuklatilgan.

Pedagogika haqida ilk fikrlar falsafa, diniy ilmlar tizimida, siyosatshunoslikda, huquqshunoslikda adabiyotda rivojlandi. XII-asrning boshida alohida ilm bo‘lim ajralib chiqdi. F.Bekon va Ya.Komenskiylarning kitoblarida pedagogikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shilgan. Ularning izidan D.Lokk, Jan Jak Russo, I.Pestalotssi, I.Gerbard, A.Disterverglar o‘z hissalarini qo‘shihadi. O‘rta asrlarda yoshlarga bilim berish va tarbiyalash diniy markazlarning qo‘lida bo‘ldi. Keyinchalik gil‘deylik maktablar ochila bo‘shlanadi

—Pedagogiya — ya‘ni bola tarbiyasi haqidagi fandir deb ta‘riflaydi A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq asarida.

Pedagogika — paydogogos-grekcha(bola va —yetaklash)ma‘nosini bildiradi. Insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va usullari haqidagi fan. U yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash

haqida bahs qiladi. U ta'limtarbiyaning umumiy qonunlarini ishlab chiqib, hayotga tadbiq qilish masalasini o'rganadigan fan deb ta'riflash mumkin. Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan odamlarda mehnat qurollarini ishlata bilish qobiliyati, mehnat malakalari, nutq va tafakkur o'sib, kamol topib boradi. Pedagogika avval tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan falsafa fani tarkibidan ajralib chiqib fan sifatida taniladi. Hozirgi davrda inson faoliyati bilan shu qo'llanadigan fanlar juda ko'p. Pedagogika fanining o'zi o'rganadigan mavzu ya'ni inson, odam, bola va uning shakllanishi haqida tadqiq qiladi, hamda fan sifatida tan olindi va rivojlanib bormoqda. Juda qadimgi davrda jamiyatning inson zotini qo'llab-quvvatlash va saqlab qolish ehtiyojidan kelib chiqqan holda tarbiyalash jarayoni avvalo u ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida to'plangan va to'planayotgan ijtimoiy tajribani bir-birining o'rniga kelib turadigan avlodlarga yetkazib berishi bilan xarakterlanadi. Pedagogika nazariyasi va amaliyotida pedagogika fanining asosiy tushunchalari o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, yagona pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ular asosan quyidagilardan tashkil topadi: bilim, ko'nikma, malaka, tarbiya, ma'lumot va shaxsni shakllantirishi singarilardan iborat. Bularning har biriga alohida tuxtalamiz:

Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan, umumlashgan tajribasidir. Yoki bilimlar bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyatning ijtimoiy tarixiy amaliyoti hosilasidir. Bilimlar insoniyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zlashtirishi jarayonida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga hamda o'zlashtirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatları haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit asoslangan majmuasidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmaydilar, balki bir qancha ko'nikma va malakalarini hosil qildilar. (Davidov V.V)

Ko'nikma – maktab o'quvchilarining olgan bilimlariga asoslanib, quyidagi vazifalarni va

shartlarga binoan, bajariladigan harakatlarning yig'indisidir. Ko'nikmalar:

1. O'quv ko'nikmaları
2. Nutqiy faoliyatga oid ko'nikmalar
3. Badiiy faoliyatga oid ko'nikmalar
4. Muomila va o'zini tutish ko'nikmaları
5. Mehnat ko'nikmaları
6. Kasbga oid ko'nikmalarga bo'linadi.

Malaka – ongli, xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Yoki malaka –faoliyat jarayonida uning biror bir elementini (ongning eng kam nazorati ostida) bajarish qobiliyatidir. Ko'nikma, malakalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikma va malakalar

bog'lansada, avvalgiday bilimlar yetakchi rol uynayveradi. Chunki o'quvchilar bilimlar asosidagina ko'nikma va malakalarining ma'lum darajasini egallaydilar.

Rivojlantiruvchi o'qitish. Inson va jamiyatning, inson va tabiatning ajralmas birligi. Aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllantirishi.

O'qitish texnologiyasi. Reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. O'qitishdagi muammoli va dasturlashtirgan yondoshuvlar. Jamoat ongi va individual ongning o'zaro bog'liqligi. Voqealar borliqdagi predmetlarning rivoji umumiyligi aloqasi, o'zaro bog'liqligi. Ayrim va o'ziga xos fikrlardan umumiyya, hissiyotdan aql-idrokka, mavhumdan aniq fikrlarga qarama-qarshi o'zgarish. Shaxsning mustaqil bilim olishi va o'zini ro'yobga chiqarishi (ko'rsatishi). Shaxsning rivojida faoliyatning va muloqotning yetakchi roli.

O'qitishning zamonaviy texnologiyasini tavsiylovchi belgilari:

- O'qitishning butlin jarayonini O'quv maqsadlarining kafolatlangan yutiqlariga yo'naltirish .

- O'qivchilar tomonidan ularning tarbiyaliligi va rivojlanish darajasida bilimlar va harakat usullarining o'zlashtirilishida yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilgan aniq maqsadning mavjudligi. O'qitish ishlarining aniqligi va takroriyligini ta'minlash, ularning har bir o'qituvchi tomonidan qayta tiklanishi mumkinligi .

- Tezkor teskari aloqa, diagnostika usullarini joriy etish, shu maqsadlarda trening, kompyuter tipidagi nazorat topshiriqlaridan keng foydalanish, o'quvchilarining o'qish natijalarini Davlat ta'lim standartiga muvofiq baholash. Talim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- talim ustovorligining tan olinishi;
- talim olish shaklini tanlash yerkinligi;
- talim sahosidagi kamsitishlarga yol qoyilmasligi;
- talim va tarbiyaga milliy ham da umuminsoniy qadriyatlarning sindirilganligi;
- davlat talim standartlariga va davlat talim talablari doirasida talim olishning hamma uchun ochiqligi;

Zamonaviy o'zbek P.si rivojida E. Qodirov, S. Dolimov, Q. Axmedov, D. Shodiyev, A. Zunnunov, F. Musayev, J. Ikromov, K. Hoshimov, J. Yo'ldo-shev, Y. Abdullayev, N. Shodiyev, M. Qur'onov, L. Mo'minova, B. Qodirov sin-gari olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari muqim o'rinn tutadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida millim ong bo'g'uvdan, mafkuraviy qolipdan, buyruqqa muvofiq fiqolash zug'umidan qutuldi. Bu hol P.ning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga moye tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek P.si millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan qolda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek P.sida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu P.ta'limtarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarining faol ishtirok

etishlarini ko‘zda tutadi. Bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning ob’yektigina emas, balki sub’yekti, ya’ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e’ti-bor qaratilmoqda. Ayni vaqtida, barcha pedagogik tadbirlar ta’lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil fiqolashlarini ta’minlash, ularda tarbiyalanish va o‘qishga ehtiyoj uyg‘otishga yo‘naltirilgan xrlida tashkil etilmoqda. Bugungi o‘zbek P.si uchun muayyan bilimlar yi-g‘indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy P.da faqat bilimli o‘quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e’tibor berilmoqda.

Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilmashashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo‘la boshlashi bilan P. ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta’lim va tarbiyaga doyr qarashlar tizimi shakllandi. Lekin bular darhol pedagogik nazariy tizimlar sifatida emas, balki milliy fikr tarbiyaga daxldor qarashlar, aqidalar, hikmatlar tarzida namoyon bo‘ldi. Yozuv paydo bo‘lishi bilan pedagogik qarashlar yozuvga ko‘chiriladigan bo‘ldi. Antik davrdagi mu-tafakkirlarning ta’limtarbiya borasidagi fiqolari markazida yetuk insonni shakllantirishga intilish is-tagi turardi.

Poydalaniłgan adabiyotlar:

1. O‘TKIR O‘TANOV «UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» Samarqand – 2016
2. N.X.Rahmonqulova,K.N.Matnazarova " Pedagogika nazariyasi va tarixi" «O’ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI» NASHRIYOTI TOSHKENT - 2010
3. N.II.RAIIMONQULOVA,K.O.MATNAZAROVA PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI (TRENING, TEST VA NAZORAT MASHG’ULOTLARI) "O’QITUYCHI" NASHRIYOT-MATBM IJODIY UYI TOSHKENT- 2010
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pedagogika>
5. Ozbekiston Respublikasining O'RQ-637-SON "TALIM TOGRISIDAGI QANUNI" 2020-YIL 23-SENTABR